

MAMLAKATDA AHOLI BANDLIGINI TA‘MINLASH VA  
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH CHORA-TADBIRLARI

*Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi*

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti talabasi*

*Email: nigorasyfullayeva1001@gmail.com*

MEASURES TO ENSURE EMPLOYMENT AND REDUCE  
POVERTY IN THE COUNTRY

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, O‘zbekistonda aholi bandligini tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish orqali ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so‘z boradi. Shuningdek, davlat tomonidan ajratilayotgan maqsadli mablag‘lar va ularning tahlili haqida ma‘lumot berilgan.

**Abstract:** This article talks about the work being done to ensure employment of the population in Uzbekistan through the development of entrepreneurship and crafts. Also, information is given about the targeted funds allocated by the state and their analysis.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о проводимой работе по обеспечению занятости населения в Узбекистане посредством развития предпринимательства и ремесел. Также дана информация о целевых средствах, выделяемых государством, и их анализ.

**Kalit so‘zlar:** Tadbirkorlik, hunarmandchilik, maqsadli mablag‘lar.

**Key words:** Entrepreneurship, crafts, targeted funds.

**Ключевые слова:** Предпринимательство, ремесла, целевые фонды.

**Kirish:**

Dunyo bo‘ylab mamlakatlar rivojlanib borar ekan, albatta asosiy vazifa qilib mamlakatda iqtisodiyotni rivojlantirish, tadbirkorlarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash va shuningdek kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirish olinadi. “**Avval iqtisod-keyin siyosat**”degan mashhur iboraga amal qilgan holda, mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda davomida asosiy ustuvor vazifa bo‘lib turgan tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta‘minlash maqsadida, bir qancha amaliy ishlar amalga oshirmoqda. Hunarmandchilik, tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish va bu orqali aholini ish bilan ta‘minlash uchun davlat tomonidan, maqsadli mablag‘lar ssuda va subsidiya ham ajratilishi bo‘yicha bir qancha qarorlar ishlab chiqildi. Xususan, **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.07.2023 yildagi 307-soni**, “**O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-**

**tadbirlari to‘g‘risida”** qaroriga muvofiq, mamlakatda kamabag‘allikni qisqartirish uchun, aholi o‘rtasida hunarmandchilikni rivojlantirish borasida muhim vazifalar belgilanib o‘tildi:

“a) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etilganligi;

b) Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘laridan tadbirkorlik subyektlariga quyidagi subsidiyalarni ajratish:

kasanchilikni tashkil etgan mahallalar joylashgan hududdan qat‘i nazar, har bir kasanchining dastlabki uch oy davomidagi kasanchilik faoliyati uchun bir oylik o‘rtacha daromadi miqdorida;

2025-yil 1-yanvarga qadar kasanachilik bilan shug‘ullanayotgan ishsiz va ish qidirayotgan, shuningdek, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” yoki “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan fuqarolarga asbob-uskunalar va xomashyo xarid qilish bo‘yicha xarajatlarini qoplash uchun, biroq har bir kasanachi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha miqdorda;

kasanchilik yoki hunarmandchilik asosida uy sharoitida ishlayotgan nogironligi bo‘lgan shaxslarning ish joyini moslashtirish uchun har bir moslashtirilayotgan ish joyi bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravarigacha miqdorda;

Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish tartibi;

tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar va ssuda ajratish tartibi.<sup>1</sup>

Qarorga muvofiq kasanachilikni tashkil etgan tadbirkorlik sub‘yektlariga subsidiya olish tartibi belgilandi. Unga ko‘ra subsidiya 3 oy davomidagi kasanchilik faoliyati uchun bir oylik o‘rtacha daromadi miqdorida ajratiladi. Murojaatchilar subdiya olish tartibi va kerakli hujjatlari haqida ma‘lumot olish uchun, hokim yordamchisining tavsiyasi asosida mahalliy mehnat organiga yoki YaIDXP (my.gov.uz)<sup>2</sup> sayti orqali murojaat qilishi lozim.<sup>3</sup>

Ma‘lumot o‘rnida “2025 yil 1 yanvardan subsidiya.mf.uz<sup>4</sup> platformasida tadbirkorlarga taqdim etiladigan qo‘llab-quvvatlash choralarining turlari, muddatlari va tartibini o‘z ichiga olgan alohida reyestr yuritiladi”.<sup>5</sup>

Xotin qizlar Tadbirkorligini rivojlantirish va ularni jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun bir qator yengilliklar qilinib, shular qatorida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-son “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.07.2023 yildagi 307-sod. “O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. <https://lex.uz/uz/docs/-6543772>

<sup>2</sup> <https://my.gov.uz/uz>

<sup>3</sup> [https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda\\_yangi/kasanachilarga\\_subsidiya\\_qanday\\_beriladi](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/kasanachilarga_subsidiya_qanday_beriladi)

<sup>4</sup> <https://subsidiya.mf.uz/uz>

<sup>5</sup> <https://kun.uz/97649829>

quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>6</sup> qaroriga asosan tadbirkorlar ayollarni qo‘llab quvvatlash uchun subsidiyalarni 7 mln.so‘m dan 10 mln. so‘mgacha oshirish nazarda tutilgan edi. Bu subsidiyalarni ajratishdan maqsad tadbirkor ayollarning o‘z biznesini boshlashda, zarur asbob uskunalar sotib olish uchun ishlatalishi ko‘zda tutildi.

Ma‘lumot o‘rnida bu subdiyalar “Ayollar daftarida” kiritilgan va o‘z biznesini boshlashni hohlagan ayol tadbirkorlarga 2 xil ko‘rinishda, online-mahalla.uz<sup>7</sup> va Vasiylar kengashi raisiga ariza orqali murojaat qilish orqali ajratilishi belgilandi.<sup>8</sup>.

### **Tahlil:**

#### **Aholi va tadbirkorlik subyektlariga subsidiya ajratishning oshirilgan MIQDORLARI**

T/r	Biznesni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari	1-toifa	2-toifa	3-toifa	4-toifa	5-toifa
1.	<b>Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi hisobidan</b>					
a)	sug‘orish vositalarini xarid qilish uchun	Bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha	Bazaviy hisoblash miqdorining 12 baravarigacha	Bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravarigacha		
b)	ishsiz fuqarolar, kam ta‘minlangan oilalar a‘zolari va tashqi mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarga ularning bandligini ta‘minlash maqsadida tashkil etiladigan qishloq xo‘jaligi kooperativlari ustav fondiga ulush sifatida kiritish	Bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha	Bazaviy hisoblash miqdorining 12 baravarigacha	Bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravarigacha		
v)	“usta-shogird” an‘analari asosida yoshlarga hunar o‘rgatayotgan hunarmandlarga (kulollarga) shogirdlar tayyorlash, zarur xomashyo sotib olish va shogirdlarni ish haqi bilan ta‘minlash uchun	Bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravarigacha	Bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha	Bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravarigacha		

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.03.2022 yildagi PF-87-son Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

<sup>7</sup> <https://online-mahalla.uz/>

<sup>8</sup> To‘liq ma‘lumot olish uchun qarang [https://finlit.uz/uz/articles/remote-banking/for-women-entrepreneurs/?phrase\\_id=228575](https://finlit.uz/uz/articles/remote-banking/for-women-entrepreneurs/?phrase_id=228575).

g)	Shogirdlarga — mustaqil faoliyat boshlashi uchun zarur asbob-uskuna va jihozlarni sotib olish, shuningdek, ustalarga — internet saytlarini tashkil etish, o‘z mahsulotlarini jahon elektron savdo maydonchalariga chiqarish va reklama xarajatlari uchun	Xarajatlarning 50 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravarigacha	Xarajatlarning 75 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha
d)	o‘quv kurslarini tamomlagan har bir bitiruvchi (yoshlар, xotin-qizlar) uchun kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish bo‘yicha nodavlat ta’lim tashkilotlariga sarflangan xarajatlarning har bir bitiruvchi hisobiga 1 mln so‘mdan oshmagan holda kompensatsiya qilish	Xarajatlarning 70 foiz	Xarajatlarning 80 foiz Xarajatlarning 100 foiz
2.	<b>Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hisobidan</b>		
a)	Tomorqa yer uchastkalarida fuqarolarni kooperatsiya va kasanachilik asosida ish bilan band qilgan tadbirkorlik subyektlariga:  parranda (tovuq, bedana, o‘rdak, g‘oz, kurka), parrandani saqlash uchun katak, ozuqa yemi hamda dori vositalari;  uzum ko‘chati va tok so‘risi; asalari oilasi, asalari uyasi uchun quti hamda ozuqa yemi;  quyon, quyon katagi va ozuqa yemi;  baliq chavoqlari, sun‘iy hovuz va ozuqa yemini xarid qilish uchun har bir fuqaro uchun subsidiya ajratish.	bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravarigacha	bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravarigacha

<p>umumiylar qurilish ishlari bilan shug‘ullanayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga kamida 3 nafar xodim yollagan taqdirda mehnat qurollari — asbob-uskunalar, ish qurollari, stanoklar va shaxsiy himoya va gigiyena vositalarini — maxsus kiyimbosh, maxsus poyabzal, boshqa shaxsiy himoya va gigiyena vositalari sotib olish uchun subsidiya ajratish.</p>	<p>b) bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravarigacha</p>	<p>bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravarigacha</p>
------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi PF-287-son Farmoniga 3-ILOVA<sup>9</sup>**

**Xulosa va takliflar:**

Mamlakatda aholi bandligini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar bu albatta har bir aholi uchun yaxshi imkoniyatdir. Bunda hunarmandchilikni rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo‘llab quvvatlagan holda, maqsadli mablag‘lar ajratilishi bu tom manoda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga muhim rol o‘ynaydi. Kasanachilikni rivojlantirishda qulayliklar va imtiyozlar yaratilib, yoshlar orasida hunarmandchilikga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otilmoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirish bilan qatorda jamag‘armalar tomonidan ajratilyotgan maqsadli subsidiyalar bilan biz ishsiz aholini va aniqsa, ayollar va yoshlarni ish bilan ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamon talablaridan kelib chiqqan holda, oladigan bo‘lsak biz nafaqat davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan foydalanishimiz va o‘zimiz ham harakat qilgan holda, loyihamizni moliyalashtirish va uni ommaga taqdim etishimiz uchun “Mirzo Ulug‘bek Vorislari”<sup>10</sup>, “Bo‘lajak olim”<sup>11</sup> va boshqa bir qancha ko‘rik tanlovlarda o‘z g‘oyalarimiz bilan ishtirok etib, yashab turgan maskanimizda bo‘sh ish o‘rnini yaratishga hissa qo‘shtan bo‘lamiz.

<sup>9</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-6333225> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.12.2022 yildagi PF-287-son “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqlashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

<sup>10</sup> <https://grantlar.uz/16-25-yoshlilar-uchun-mirzo-ulugbek-vorislari-respublika-tanlovi/>

<sup>11</sup> <https://innovation.gov.uz/contest/post-1675>

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1) “IQTISODIYOT NAZARIYASI” Z.T. GAIBNAZAROVA, SH.A. ISAMUXAMETOV. Toshkent 2020, 179-180 -betlar.
- 2) <https://lex.uz/>
- 3) <https://www.researchgate.net/>
- 4) President.uz
- 5) my.gov.uz
- 6) <https://kun.uz/97649829>
- 7) <https://innovation.gov.uz/>